



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



OLAM MANZARASI VA UNDA BELGI-XUSUSIYATNING O‘RNI THE LANDSCAPE OF THE WORLD AND THE PLACE OF THE FEATURE-SIGN WITHIN IT

Jumaniyozova Charos Mahmudovna

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 2-bosqich doktoranti (PhD)

E-mail: chjumaniyozova@gmail.com

ORCID: 0009-0004-8689-6131

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./AYEB4181](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./AYEB4181)

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy axborotda borliqning inson onggi va tasavvurida aks etishi natijasida shakllanadigan olam manzarasi va uning til orqali namoyon bo‘lishi asosida har bir tilning o‘ziga xos lisoniy olam manzarasi vujudga kelishi yoritiladi. Shuningdek, olam manzarasi shakllanishida borliqdagi belgi-xususiyatlarning o‘rni, olam manzarasi, lisoniy olam manzarasi va belgi-xususiyat tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *olam manzarasi, lisoniy olam manzarasi, tafakkur, til, belgi-xususiyat.*

Annotation. *This thesis examines the concept of the worldview formed because of the reflection of reality in human consciousness and imagination, as well as the emergence of each language’s specific linguistic worldview through language. In addition, the role of features and characteristics of reality in the formation of the worldview is analysed, and the interrelationship between the concepts of worldview, linguistic worldview, and features-characteristics is explored.*

Keywords: *worldview, linguistic worldview, cognition, language, features and characteristics.*

“Olam manzarasi – bu subyektning atrof-olam, real yoki xayoliy voqelikka oid bilim va fikr-mulohazalari majmuyidir [Бахранова, 2022: 17]”. Olam manzarasi borliqqa nistaban inson ongida shakllangan umumiy tasavvur sifatida qaraladi. “Borliq – obyektiv mavjud reallikni ifodalovchi falasafiy tushuncha. U moddiy predmet olamidangina iborat emas. Borliq turli darajada namoyon bo‘ladi: organik va noorganik tabiat, biosfera, ijtimoiy borliq, obyektiv ideal borliq (madaniy qadriyatlar, ilmiy bilimning umumiy prinsiplari, tushunchalari va h.k.), inson turmushi [Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000: 540]”. Ko‘rinadiki, borliq – bu obyektiv reallik, mavjudlik, ya’ni tabiat, jamiyat va ongdan tashqarida mavjud bo‘lgan barcha narsalarning yaxlitligi. U inson onggi va tasavvuridan tashqarida alohida mavjud. Olam manzarasi esa borliqning inson ongidagi in’ikosi. Turli



tadqiqotchilarning “olam manzarasi” haqidagi fikrlari, qarashlaridan olam manzarasi – bu inson ongidagi voqelikning in'ikosi, ma'lum bir madaniyat vakillarining olam haqidagi umumiy bilim va tasavvurlari majmuasi, insonning dunyoga munosabatini belgilovchi tushunchalar tizimi deb tushunish mumkin. Olam manzarasi turli sohalar bo'yicha tadqiq etilmoqda va buning o'ziga xos jihati shundaki, olam manzarasini bitta fan doirasida o'rganish imkonsizdir. Chunki inson tafakkuri ko'p qirrali hodisa bo'lib, uning borliqni idrok etish shakli falsafa, tarix, psixologiya, jamiyatshunoslik, madaniyatshunoslik, tilshunoslik va h.k. barcha sohalarining uzviy bog'liqligi asosida tahlil qilinishi lozim.

Olam manzarasi ma'lum bir zamon va makon kishilarining dunyo, borliq haqidagi tasavvurlari majmuyi bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'zgarib borar ekan, bu jihatdan u dinamik xarakterli deb qaraladi. “Olam manzarasi o'zgaruvchan – u fan va texnika taraqqiyoti, boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalar, ijtimoiy o'zgarishlar tufayli to'lib va kengayib boradi... [Бахрамова, 2022: 26]”. Chunki fan va texnologiyalardagi o'zgarishlar, turli kashfiyotlar, xalq va millatlar o'rtasidagi turli aloqalar olam manzarasida aks etadi va uni oldingi holatidan o'zgartiradi. Olam manzarasi – insonning borliqni idrok etishi va uni tushunchalar, tasavvurlar hamda qadriyatlar orqali anglash jarayoni. Oddiy qilib aytganda olam manzarasi insonning borliqqa nisbatan shakllangan umumiy tasavvuri deyish mumkin. Ushbu borliq haqidagi tasavvurlarimiz yig'indisi olam manzarasidir. “M.Xaydeggerning qayd qilishicha “manzara” so'zi deganda birinchi navbatda, biror narsaning tasviri haqida o'ylaymiz, olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi [To'raqulova, 2021: 888]”.

Olam manzarasi tafakkur mahsuli sifatida shakllanadi. Tafakkur borliqni anglashda va olam manzarasini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi va o'z navbatida tafakkur bevosita til bilan chambarchas bog'liq. Har bir til o'zigagina xos bo'lgan konseptualizatsiya uslubiga ega va shunga ko'ra til o'zining dunyoqarashini yaratadi. Til borliq, olam haqidagi bilimlarni shakllantirishning asosiy vositasidir. Borliq haqidagi bilimlarni aks ettirish jarayonida so'zlovchi idrok natijalarini til orqali ifodalaydi. Tilda mujassamlangan olam haqidagi bilimlarni esa olamning lisoniy manzarasini tashkil etadi.

Inson borliq haqidagi har qanday tasavvur, orttirgan bilim va tajribalarini til orqali ifodalaydi. Inson borliqni sezish, idrok etish, tushunish jarayonida til birliklaridan foydalanadi va til orqali orttirgan bilimni ma'lum tartibga soladi, xotirada saqlaydi va uzatadi. Olam benihoya cheksiz bo'lib, uning inson aql-u salohiyati, tafakkuri yetmaydigan jihatlari ham mavjud. Yana shunday holat, hissiyot, narsa, hodisalar ham borki, ular bizning ongimizda, konseptual olam manzaramizda



mavjud, lekin tilda ifodalanmagan, nomlanmagan. Bunday borliq hodisalari, holat, hissiyotlarimiz qachondir nomlanishi, tilda ifodalanishi va lisoniy manzaraga kirishi ham yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Shu sababli ham biz olamning konseptual hamda lisoniy manzarasiga bir-biri bilan butun-qism munosabatidagi ikkita borliq ko'rinishlari sifatida qaraymiz.

Tilda olam manzarasi til birliklari, milliy konseptlar va frazeologik birliklarda ifodalanadi. Bu jihat til orqali xalqning dunyoqarashini, madaniyatini va mentalitetini o'rganishga imkon beradi. Tilshunoslik ilmida olamning lisoniy manzarasiga bir-birini to'ldiradigan, bir-birining davomidek qabul qilish mumkin bo'lgan va o'z navbatida bir-biridan farqli, ammo bir-birini rad etmaydigan qarashlar, ta'riflar mavjud. “Aynan til orqali inson olamni tasvirlaydi, til yordamida uni turli guruhlarga birlashtiradi va hech bir vosita til kabi insonning tafakkuri haqida mufassil guvohlik bera olmaydi [Usmonov, 2020: 14]”. “Til faqat so'zlardan iborat emas, u xalqning butun dunyoqarashi va madaniyatini ham o'zida aks ettiradi...Til – tashqi olamning ko'zgusi, u borliqni aks ettiradi va har bir til hamda unga mos ravishda xalq, etnik guruh yoki nutq jamoasi uchun o'ziga xos va betakror dunyo manzarasini yaratadi [Minasova, 2000: 38]”.

Demak, borliq va olamning lisoniy manzarasi orasida inson turadi. Borliq insondan mustaqil mavjud. Inson borliqni sezgi, idrok, tasavvur va tafakkuri orqali qabul qiladi va uni qanchadir qismini o'z tilida nomlaydi, til birliklaridan foydalangan holda nutq orqali ifodalaydi. Shu tariqa olamning lisoniy manzarasi shakllanadi. Olamning lisoniy manzarasi N.Mahmudov so'zi bilan aytganda: “Tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilda barqarorlashgan dunyo haqidagi tasavvurlari bilan birga dunyoni anglash va bo'laklash usullarining jami” dir. Yoki tilshunos T.B. Radbilning fikriga ko'ra: “Dunyoning lisoniy manzarasi tushunchasi eng soddada tarzda aytganda, ma'lum bir tilning barcha tushunchalarini o'zida mujassam etgan yig'indidir [Radbil, 2013: 173]”. D.Xudoyberganovanning “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati” da esa “olam lisoniy manzarasi” termin sifatida quyidagicha izohlanadi: “Olamni idrok etishning muayyan til jamoasi ongida tarixan shakllangan, uning tilida barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo'lgan odatiy hamda majburiy usullari majmuyi; olamni idrok etish va konseptualashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullari yig'indisi. Har bir tabiiy til olamning o'ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi [Xudoyberganova, 2013: 33]”. Demak, olamning lisoniy manzarasi shakllanishida til egalarining yashash shakli, tabiat bilan munosabati va turmush tarzi kabilar muhim jihatlar hisoblanib, unda til egalarining milliy-madaniy qadriyatlari, atrof-muhit, tabiat, turmush tarzi, dunyoqarashi va xalqning ruhiy dunyosi ham aks etadi. U



tarixan shakllangan bo'lib, til egalari uchun umumiy, barqaror va majburiy idrok shaklidir. “Har qanday til alohida olam manzarasiga ega va lisoniy shaxs ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini tuzishga majburdir. Til insonning olam haqidagi bilimlarining shakllanishi va mavjud bo'lishidagi muhim omildir. Inson faoliyat jarayonida obyektiv dunyoni aks ettirar ekan, dunyoni bilish natijalarini so'zda qayd etadi. Olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to'ldiradi. Lisoniy shakllarda muhrlangan mazkur bilimlar majmuasi olamning lisoniy manzarasi deb nomlanadi [Usmonova, 2019: 76]”.

Olamning lisoniy manzarasi – bu xalqning tilida aks etgan dunyoqarashi, ya'ni til egalari tabiat, jamiyat va ijtimoiy munosabatlarni qanday ko'rishi va tasniflashidir. Bu jarayon, ya'ni olamni tasniflash (bo'laklarga ajratish) har bir tilda o'ziga xos bo'ladi. Olam manzarasi tilda ko'proq belgi-xususiyatlar orqali aks etadi. Chunki biz dunyoni idrok etishda borlikdagi narsa va hodisalarni ularning belgi-xususiyatlari orqali bilamiz, farqlaymiz, tasniflaymiz va h.k. Ya'ni biz uchun olam ranglar, o'lchamlar, shakllar, turli (ijobiy va salbiy) belgilar orqali mavjud bo'ladi. Farobiyning fikricha: “Olamda javhar va oraz hamda ularni yaratuvchi Marhamatli Ijodkordan boshqa hech narsa yo'qdir [Nurmonov, 2012: 33]”. Bunda u aksidensiya va substansiya tushunchalaridan foydalanadi. Aksidensiya (sifat, belgi-xususiyat) tushunchasi ostida predmetlar sifati, belgi-xususiyatlarini o'zgarishini tushunadi: “Substansiya – narsalar mohiyatini, aksidensiya esa substansiyaning turli xususiyatlarda namoyon bo'lishini ifodalaydi. Aksidensiya mustaqil holda mavjud bo'la olmaydi, u substansiyaning tashqi xarakteristikasini berib o'tuvchan hisoblanadi, ya'ni predmetlardan uzilgan holda na tovushga, na rangga, na hidga ega bo'ladi [Nazarov, 2004: 116]”. Narsa qancha murakkab va mukammal bo'lsa, u shuncha ko'p belgi-xususiyatlarga ega bo'ladi.

Belgi-xususiyatlar nafaqat narsa va hodisalarni tavsiflaydi, balki til egalarining olam haqidagi tasavvuri va qadriyatlarini ham ifodalaydi. Shuning uchun ham olam manzarasini belgi-xususiyatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Til – xalqning olamni qanday ko'rishi, qanday qadriyatlarga ega ekanligini ifodalovchi asosiy vositadir.

Adabiyotlar:

1. Бахранова Д.К. Ўзбек ва испан тилларида олам манзарасининг лингвокогнитив категорияланиши: Филол.фан. д-ри (DSc)...дисс.автореф. – Тошкент, 2022.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, Давлат илмий нашриёти. 2000.
3. Nurmonov A. Tanlangan asarlar.1-kitob. – Toshkent, Akademnashr. 2012.

4. Nazarov Q. Bilish falsafasi. – Toshkent, Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2004.
5. Радбиль Т.Б. Основы изучения языкового менталитета. Москва, 2013.
6. Тер Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. Москва, 2000.
7. To'raqulova M.X. Olam milliy lisoniy manzarasi tasvirida til va madaniyat mushtarakligi. ACADEMIC RESEARCH EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2, ISSUE 4, 2021.
8. Usmonov F.F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. Filol. Fan. dok-ri (DSc)...diss. Toshkent, 2020.
9. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.
10. Худойберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг кискача изоҳли луғати. Тошкент, 2015.
11. Komilova, G. R. (2024). *Qadriyat va bahoning lingvistik talqini*. O'zbekiston: til va madaniyat. *Lingvistika*, (4), 46–51.
12. Mavlyanov, S. (2022). O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar. *Uzbekistan: Language and Culture*, 1(1).
13. Muhammadiyeva, D. (2025). PROBLEMS RELATED TO THE TRANSLATIONS OF “BOBURNOMA” IN TURKIC LANGUAGES. *Türkoloji*, 121, 65-84. <https://doi.org/10.59358/ayt.1619264>
14. O'razova, I. Frazemalardagi kontaminatsiya hodisasi.[Internet manba]. URL: <https://zenodo.org/records/11108578> (Murojaat etilgan sana: 17. 09. 2024).
15. Sirojiddinov, S. (2011). Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik
16. SIROJIDDINOV, S. (2023). BABUR: A RULER, POET AND ENCYCLOPEDIST SCIENTIST. *Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры*, 1(1)
17. Z Xolmanova. [Ichki nutq–“Boburnoma” matnining o'ziga xosligini ta'minlovchi omil](#). - Uzbekistan: Language and Culture, 2025
18. X Mushtariy "[Khutadgu bilig](#)" related to lexical medicine - Iranian Journal of Social Sciences and Humanities ..., 2017
19. В Abdushukurov, L Aralova Turkish assimilation words in Russian language-Asian Journal of Multidimensional Research, 2021